

## Germaniya bilan qo'shma korxonada tashkil qilinadi

---



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4145-sonli qarorida Avtomobil yo'llari qo'mitasiga, tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda – asfaltbeton qorishmalari ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxonada tashkil etish

loyahasini tadbir etish vazifasi yuklatilgan edi.

Ushbu vazifa ijrosi yuzasidan qo'mita hamda Germaniyaning "GP Gunter Papenburg AG" kompaniyasi o'rtasida, O'zbekistonda qo'shma korxonada tashkil etish yuzasidan kelishuv imzolandi.

Mazkur investitsion loyihaning umumiy qiymati 5,7 mln. yevroga teng bo'lib, uning 4,0 mln. yevro qismi – Germaniya tomonidan kiritiladigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya hisobiga to'g'ri keladi, 1,7 mln. yevro qismi esa O'zbekiston tomonining ulushidir.

**Avtomobil yo'llari qo'mitasi**

**matbuot xizmati**